

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**MATJANOV TO`LQINJAN KAZAKBOYEVICH**

**QORAQALPOG'ISTONNING AYRIM BALIQCHILIK KO'LLARIDAGI  
YUKSAK SUV O'SIMLIKLARINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Matjanov To'liqinjan Kazakboyevich**

Qoraqalpog'istonning ayrim baliqchilik ko'llaridagi yuksak suv o'simliklarining ekologik xususiyatlari..... 3

**Матжанов Тулкинжан Казакбоевич**

Экологические особенности высших водных растений в некоторых рыбопромысловых озерах Каракалпакстана..... 21

**Matjanov Tulkinjan Kazakboyevich**

Ecological features of higher aquatic plants in some fishing lakes of Karakalpakstan..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**MATJANOV TO`LQINJAN KAZAKBOYEVICH**

**QORAQALPOG'ISTONNING AYRIM BALIQCHILIK KO'LLARIDAGI  
YUKSAK SUV O'SIMLIKLARINING EKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.1.PhD/B563 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq Tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.aknuk.uz](http://www.aknuk.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'iga ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Otenov To'legen</b> Biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Naraliev Nasibaxon Mamanovna</b> biologiya fanlari doktori, professor <b>Mamaraximov Oybek Mura'ovich</b> biologiya fanlari nomzodi, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro Davlat Universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.04.2021.B.79.01 Ilmiy kengashning 2025-yil «27» 08 soat 10dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko'chasi 41, institut kichik majlislar zali. Tel: (+99861) 2221744, (+99861) 2229672, faks: (+99861) 2221744, e-mail: [aknuk@mail.uz](mailto:aknuk@mail.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (18 raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 11 » 08 kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 28 » 04 dagi № 45 raqamli reyestr bayonnomasi).



**Mambetullaeva Svetlana Mirzamuratovna**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**Utemuratova Gulshirin Najimatdinovna**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d.

**Ajiev Alisher Baxtibaeovich**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Butun dunyoda biosferaga antropogen faoliyatning salbiy ta'siri yil sayin ortib bormoqda. Suv ekotizimlari antropogen omillar ta'siriga juda sezgir bo'lgan tabiiy muhitning tarkibiy qismidir. Shu bois, suvda yashovchi organizmlarning, jumladan, makrofitlarning suvning ifloslanishiga qarshilik ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, ifloslangan suv havzalarini biomonitoring qilish, ularning fitoremediatsiyasi, umumiy gidrotsenozlar va ularning biologik xilma-xilligini saqlab qolish va barqarorligini oshirish suv ekotizimlariga bo'lgan antropogen bosimning kuchayishi sharoitida o'simliklarning moslashish xususiyatlarini o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda yuksak suv o'simliklarining ekologik xususiyatlarini o'rganish, ularning suv havzalarida mavjud tabiiy muvozanatni saqlashdagi o'rni va suvning gidrologik va issiqlik rejimiga, kimyoviy tarkibining o'ziga xos xususiyatlariga, trofik holatiga ta'sirini aniqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan suv havzalarining makrofit o'simliklarining o'txo'r baliqlar uchun ozuqa bazasi sifatidagi ahamiyatini o'rganish, suv ekotizimlariga va makrofitlarning ayrim turlariga antropogen ta'sir darajasi va xarakterini aniqlashga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.11.2023 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.11.2019 yildagi "2019-2028-yillarda "O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha strategiyalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 484-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2939-sonli 2017-yil 01-maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-apreldagi "Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3657-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4005-son qarori hamda shu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarning bajarilishiga mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari – V "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" ga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlarini, tarqalishi, xo'jalik ahamiyati va resurslarini tadqiq qilish bilan A.Muzaffarov, T.Taubaev, R.Shoyokubov, B.Sherboyev, S.Erejepov, A.Baxiyev, U.Turemuratov, X.Alimjonova, T.Xolmuradova, X.Matjanova, S.Rustamova va boshqalar shug'ullanishgan.

MDH mamlakatlari olimlari va mutaxassislari tomonidan ekologik-floristik yondashuvdan foydalangan holda amalga oshirilgan va asosan qirg'oq bo'yidagi

suv o'simliklari jamoalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (T.Taubaev, Sviridenko B., Evjenko K., Kilyakova Yu.). Ko'pgina tadqiqotlar turli baliqchilik suv havzalarida yuksak suv o'simliklarining ahamiyatiga bag'ishlangan (G.Taran, B.Sviridenko, K.Evjenko, Yu.Kilyakova, va boshqalar). Yuksak suv o'simliklari yordamida suv muhitini bioindikatsiya qilishda o'simliklarning hayotiy holati belgilaridan foydalanish mumkinligi qayd etilgan (Pitulko V.M., Ilyushenko R.R., Kulibaba V., Dregulo A.).

Zamonaviy ekologik inqiroz sharoitida tabiiy muhit dunyosining yaxlitligini saqlash masalasi har qachongidan ham muhimroqdir. Ekologlarning suv o'simliklari va hayvonlarining biotsenotik munosabatlarining tabiatini tushunishga bo'lgan qiziqishi bir qator ilmiy nashrlarda o'zini namoyon qildi, unda mualliflar biror bir yuksak suv o'simliklari bilan qoplangan hududlarda yashashga moslashgan organizmlarning turli guruhlarining tarkibi va rivojlanishini Zolotaryov (1966; 1975; 1977; 1981; 1984; 1994; 1996; 1997; 1998; 1999; 2000), Hughes Jeffrey et all. (2002), Okun Nils, Mehner Thomas (2003), Titlyanov va boshq. (2011), Maltsev (2007) va boshq. tahlil qildilar. Shuningdek, olimlar (Lloyd S.D., Fletcher T.D., Wong T.H.F., Wootton R.M., McAnally A.S., Benefield J.D., Bishor Paul L., Eighmy T. Tayler.) suvni o'simliklar yordamida tozalash usullarini yaratdilar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining II3-20170918132 «Amudaryo delta zonasidagi baliqchilik suv havzalarida yuksak suv o'simliklarining baliq populyatsiyasining rivojlanishiga ta'sirini aniqlash bo'yicha tavsiyalar va ilmiy asoslar ishlab chiqish» (2018–2020 yy.) loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Qoraqalpog'istonning ayrim ko'llaridagi yuksak suv o'simliklarining ekologik xususiyatlarini va zamonaviy holatini aniqlash hamda ulardan foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Amudaryo delta zonasidagi – Dovutko'l, Sarbas, Sudochye, Jiltirbas ko'lidagi yuksak suv o'simliklarini tadqiq qilish va ularning zamonaviy holatini aniqlash;

suv sifati va suv rejimini hisobga olgan holda ushbu suv havzalarida o'suvchi yuksak suv o'simliklari turlarining bioekologik xususiyatlarini tadqiq qilish;

suv o'simliklaridan amaliy foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Amudaryo delta zonasi baliq populyatsiyasining rivojlanishiga yuksak suv o'simliklarining ta'sirini aniqlash hamda uning ekologik va biotik parametrlarini hisobga olgan holda ko'llarning istiqbolli akvakultura texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ektlari** sifatida Amudaryo deltasining ayrim ko'llarida o'sadigan yuksak suv o'simlik turlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Amudaryo deltasidagi ko'llarda yuksak suv o'simliklari turlarining baliq populyatsiyasining rivojlanishiga ta'siri natijasida suv ekotizimlarida sodir bo'ladigan ekologik jarayonlar tahkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida an'anaviy geobotanik va ekologik tadqiqot usullaridan, statistik va qiyosiy tahlil usullari va GAT texnologiyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Amudaryoning delta zonasi suv havzalarida – Dovutko‘l ko‘lida, Sarbas ko‘lida, Sudochoye ko‘llar tizimida, Jiltirbasda yuksak suv o‘simliklarining hozirgi holatida faqat gidrogalofil turlar uchrashi, ular 9 oila, 13 turkumga mansub 23 ta turdan iborat ekanligi aniqlangan;

Birinchi marotaba Amudaryo deltasining baliqchilik suv havzalaridagi barqaror bo‘lmagan suv rejimi sharoitida yuksak suv o‘simliklarining bioekologik xususiyatlari ochib berilgan;

Amudaryo delta zonasi ko‘llaridagi yuksak suv o‘simliklarining haddan tashqari o‘shishiga qarshi kurashda ko‘llarning o‘zida ko‘paya oladigan *Cyprinus carpio*, *Rutilus rutilus*, *Carassius gibelio*, *Abramis brama* kabi o‘txo‘r baliq turlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Amudaryo delta zonasi baliqlar populyatsiyasining rivojlanishiga yuksak suv o‘simliklarining ta‘sirini aniqlash hamda uning ekologik va biotik parametrlarini hisobga olgan holda suv havzasining istiqbolli akvakultura texnologiyalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Yuksak suv o‘simliklarining iqtisodiy foydali baliq turlarini yetishtirishga ijobiy ta‘siri tufayli yaylov baliqchiligini rivojlantirish, pitomniklar tashkil etish, yangi akvakultura obyektlarini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Suv ekotizimlarining o‘simliklari salohiyatidan foydalanib baliqchilikni rivojlantirish va yuqori hajmdagi baliq xom ashyosini olish uchun baliq yetishtirishning turli shakl va texnologiyalarini joriy etishni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** yuksak suv o‘simliklarining hozirgi holatini tavsiflashda, o‘rganilayotgan suv havzalarining gidrokimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlashda umum e‘tirof etilgan klassik usullardan foydalanilishi, olingan natijalarning xalqaro ma‘lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda nashr etilishi olingan ma‘lumotlarning yetakchi mutaxassislar tomonidan muhokama qilinishi va tasdiqlanishi, statistik va axborot dasturlari yordamida ilmiy natijalarni tahlil qilinishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, yuksak suv o‘simliklarining hozirgi holati aniqlanganligi, baliqlarning tabiiy ozuqa bilan ta‘minlanishini ekologik jihatdan baholash o‘tkazilganligi, tadqiq qilingan suv havzalarining gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari o‘rganilganligi, olingan natijalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv o‘simliklari resurslarining biologik xilma-xilligini o‘rganishga katta hissa qo‘shganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, yuksak suv o‘simliklarining tur xilma-xilligi haqidagi ma‘lumotlardan suv ekotizimlariga antropogen ta‘sirning mumkin bo‘lgan oqibatlarini monitoring va bashorat qilish

uchun foydalanish mumkinligi, tadqiqot natijalarini amaliyotda qo'llash o'rganilayotgan suv havzalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilishi va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini olib borish usullaridan samarali foydalanisga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog'istonning ayrim baliqchilik ko'llaridagi yuksak suv o'simliklarining ekologik xususiyatlari bo'yicha olingan natijalar asosida:

baliqchilik ko'llari – Dovutko'l, Sarbas, Sudochye va Jiltirbas ko'llarining yuksak suv o'simliklari bilan tig'iz qoplanganligi va ularga qarshi kurashda o'txo'r baliq turlaridan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (2024-yil 21-iyundagi 01/18-2-1948-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv ekotizimlari salohiyatidan foydalanib, yuqori hajmdagi baliq xomashyosini olish uchun baliq yetishtirishning turli shakllari va texnologiyalarini joriy etish imkonini bergan.

Amudaryo deltasi ko'llarida ko'paytirish mumkin bo'lgan o'txo'r baliqlar uchun ozuqa sifatida yuksak suv o'simliklaridan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va amaliy tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (2024-yil 7-iyundagi 03/09-3-260-son ma'lumotnomasi). Natijada, suv yaylovchiligini rivojlantirish va ularda iqtisodiy foydali baliq turlarini tashkil etish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda hamda 1 monografiya va 2 tavsiyalar nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to'rt bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ish mavzusining zarurati va dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari asoslangan, ob'ekt va predmet tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berilgan va tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

**“Qoraqalpog'iston yuksak suv o'simliklarining umumiy tavsifi (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobda Qoraqalpog'istonda yuksak suv o'simliklarini o'rganishning zamonaviy muammolari va ularning umumiy tavsifi bo'yicha ilmiy adabiyotlar sharhi berilgan. Orol dengizi suv sathi barqaror

bo'lgan davrlarda Amudaryo quyi oqimidagi ko'llarning suv o'simliklari juda ko'p turlarga ega bo'lgan. Adabiy manbalarga ko'ra (Bondarenko, 1964; Turemuratov, 1978), o'tgan asrning 60-70 yillarida yuksak suv o'simliklari 23 oilaga mansub 35 turkum va 66 turni tashkil qilgan. Ammo 2018-2020 yillarda olib borgan o'z tadqiqotlarimizga asosan, ularning ba'zilari floramiz tarkibidan yo'q bo'lib ketgan. Amudaryo deltasining suv havzalarida o'sadigan va deyarli hamma joyda uchraydigan, 9 oila va 13 turkumga mansub 23 tur yuksak suv o'simliklari mavjud, ular ichida *Phragmites australis* va *Typha angustifolia* tadqiq etilgan barcha ko'llarda edifikatorlar hisoblanadi. Shuning uchun Amudaryoning quyi oqimidagi suv havzalarida baliqlar uchun ozuqa manbai sifatidagi yuksak suv o'simliklarining hozirgi holatini o'rganish va monitoring qilish hamda suv ekotizimlarining bioxilma-xilligi holatini baholash dolzarb hisoblanadi.

**“Fiziko-geografik sharoitlar, obyekt, material va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobda tadqiqotlar olib borilgan ko'llarning fizik-geografik tavsifi keltirilgan. Bu ko'llar Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo delta zonasida joylashgan – Dovutko'l, Sarbas ko'li, Sudochye ko'llar tizimi, Jiltirbas ko'li hisoblanadi (1-rasm).



**1-rasm. Tadqiqotlar olib borilayotgan hududning sxematik xaritasi**

Orolbo'yi hududlarining tabiiy-iqlim sharoiti so'nggi bir necha o'n yilliklar ichida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Mutaxassislarning fikricha, bu Markaziy Osiyoda Orol dengizi sathining pasayishi va cirkulyasion jarayonlarning tasodifiy o'zgarishlari bilan bog'liq. 2018-2022 yillarda yoz oylarida ko'llarni o'rganish jarayonida havo haroratining juda yuqoriligi (+45-50<sup>0</sup>C) qayd etildi. Shuning uchun o'sha davrda tadqiqot olib borilgan ko'llardagi suvning harorati ham yuqori bo'lgan.

Asosiy usullar sifatida klassik qo'llanmalarda keltirilgan an'anaviy geobotanik va ekologik tadqiqot usullari qo'llanildi: “Qoraqalpog'iston yuksak o'simliklari aniqlagichi” (Bondarenko, 1964; Korovina va boshq., 1982, 1983), “Er usti suvlari va tub cho'kindilarni gidrobiologik tahlil qilish usullari bo'yicha qo'llanma (Katanskaya, Raspopov, 1983), “Amudaryo deltasining suv o'simliklari” (Katanskaya, 1963). Suv havzalarining gidrokimyoviy tarkibi “Suvni tahlil qilishning yagona usuli” (Lurye, 1971) bo'yicha amalga oshirildi. Suvlarni

kimyoviy tarkibi bo'yicha tasniflash Alekin (Nikanorov, 1989) usuli bilan amalga oshirildi.

“Qoraqalpog’iston suv havzalaridagi yuksak suv o’simliklarining zamonaviy tur tarkibi” nomli uchinchi bobda tadqiqotlar olib borilgan ko’llarning suv bilan ta’minlanish rejimiga qarab, ekologik sharoitini o’rganish natijalari keltirilgan. Qayd etilishicha, Amudaryo delta zonasidagi suv havzalarining maydoni, ekologik omillari va gidrokimyoviy ko’rsatkichlari daryo oqimining kamayishi tufayli sezilarli darajada o’zgargan. Buning sababi shundaki, barcha ko’llar tizimining suv rejimi daryoning asosiy o’zani va suv sathining o’zgarishi ta’sirida va suvning fizik va gidrokimyoviy xususiyatlari ekologik omillar bilan bevosita bog’liq bo’lgan.

Suv o’simliklari suv havzalaridagi turli tabiiy biologik resurslarning asosiy manbai hisoblanadi. Suv havzalarining holati, ularda yashaydigan hayvonlarning xilma-xilligi va ko’pligi ularga bog’liq, chunki ularning ko’pchiligi uchun o’simliklar ozuqa manbai bo’lib xizmat qiladi, ba’zilari uchun uvilduriq qo’yish o’rni, boshqalari uchun ular boshpana hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda suv o’simliklari, ularning ahamiyati va ustuvorlik jihatlari yaxshi o’rganilmaganligi tufayli ularga talab yo’qdek bo’lib qolmoqda. Ularning biologiyasini, tuzilish va funksional xususiyatlarini, jamoalari ekologiyasini tadqiq qilish nafaqat nazariy qiziqish uyg’otib qo’ymasdan, balki muhim amaliy ahamiyatga ega.

## 1-jadval

### Tadqiqot olib borilgan ko’llardagi makrofitlarning tur xilma-xilligi

№	Oila	Turkum	Tur	Tadqiqot nuqtalari (joylari)			
				Dovutko’l	Sarbas	Jiltirbas	Sudochye
1	Poaceae	<i>Phragmites</i> Trin.	<i>Phragmites australis</i> Trin.	+	+	+	+
			<i>Ph. isiaca</i> (Del.) Kunth.)			+	+
2	Typhaceae	<i>Typha</i> L.	<i>Typha angustifolia</i> L.	+	+	+	+
3	Cyperaceae	<i>Bolboschoenus</i> L. Palla	<i>Bolboschoenus maritimus</i> L. Palla	+		+	
			<i>Bolboschoenus affinis</i> (Roth.) Drob.)	+		+	
		<i>Schoenoplectus</i> (Rchb.) Palla	<i>Schoenoplectus littoralis</i> (Schrad.)	+		+	
			<i>Sch.tabernaemontani</i> (Gmel.) Palla			+	
		<i>Cyperus</i> L.	<i>Cyperus rotundus</i> L.	+		+	
		<i>Carex</i> L.	<i>Carex pseudocyperus</i> L.	+		+	
<i>C. riparia</i> Curt.	+		+	+			
		<i>C. stenophylloides</i> V.Krecz.	+		+		
4	Potamogetonaceae	<i>Potamogeton</i> L.	<i>Potamogeton perfoliatus</i>		+		
			<i>P. crispus</i>	+	+	+	
			<i>P. pectinatus</i> L.	+	+	+	+
5	Haloragaceae	<i>Myriophyllum</i> L.	<i>Myriophyllum spicatum</i>	+	+	+	
			<i>M. verticillatum</i> L.	+			
6	Juncaceae	<i>Juncus</i> L.	<i>Juncus articulatus</i> L.	+	+	+	
			<i>J.gerardii</i> Lois.	+		+	
			<i>J.soranthus</i> Schrenk.	+		+	
	<b>6</b>	<b>9</b>	19	16	8	17	4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, *Phragmites australis* va *Typha angustifolia* tadqiqot olib borilgan to'rtta ko'lda ham uchraydi va ular ko'lining sayoz joylarini egallaydi. Umumiy ko'l maydonining qariyb 15-30% i *Phragmites australis* bilan qoplangan. *Typha angustifolia* bilan qoplanish 10-15% ni tashkil etadi. *Bolboschoenus maritimus*, *B.affinis* va *Schoenoplectus littoralis* Dovutko'l va Jiltirbas ko'llarida o'sishi aniqlandi va ular 2 % ko'l maydonini qoplagan. *Sch.tabernaemontani* – Jiltirbasda – 1%, keng *Potamogeton perfoliatus* faqat Sarbas ko'lida – 1-2%, *P.crispus* – Sarbas, Jiltirbas va Dovutko'lida – 10-15 %, *P.pectinatus* Sarbas, Dovutko'l, Jiltirbas va Sudochyeda – 10-15%, *Myriophyllum spicatum* – Dovutko'l, Sarbas va Jiltirbasda (15-20%) keng tarqalganligi qayd etildi. Ko'l tubi tuprog'ining loylanishi, suv mineralizatsiyasi ortishi va iqlimning umumiy isishi suv o'simliklarining keng tarqalishiga imkon berdi. Yuksak suv o'simliklarining egallagan maydoni ko'llarning o'rtacha chuqurligining pasayishi va qirg'oq zonasi maydonining ko'payishi (chuqurligi 1-2 m dan kam) bilan ortadi [180: 196-b.]. *Phragmites australis* 1m<sup>2</sup> da 100-120 tup poyani, biomassasi 900-990 g ni tashkil etdi.

Yuksak suv o'simliklari sayoz suvlarga xos bo'lib, tig'iz chakalakzorlarni hosil qiladi. *Potamogeton* turlari 0,5-1,2 m chuqurlikda loyqa (balchiq) tuproqli hududlarda o'sadi. Barcha o'rganilgan suv havzalarida yuqorida aytib o'tilgan suv makrofitlarining yuqori darajada ko'payishi tabiiy sharoit omillarining – qulay harorat va yorug'lik sharoitlari bilan bog'liq jadal o'tishi aniqlangan.

Amudaryo oqimining qisqarishi va Orol dengizi sathining pasayishi bilan ko'plab ko'llarning butunlay qurib ketishi kuzatildi. Hidrologik rejimning yomonlashuvi va suvlar sho'rlanishining oshishi suv havzalari fitotsenozlarida sifat va miqdor o'zgarishlariga olib keldi. Bu esa o'simliklar jamoalarida ham o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Turlar tarkibining o'zgarishi, asosan, yuqorida 1-jadvalda keltirib o'tilgan gidrogalofil turlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'ldi.

Hozirgi vaqtda, Qoraqalpog'istondagi barcha ko'llarda va ularning qirg'oqlarida hammasi bo'lib 9 oila, 13 turkumga mansub 23 ta yuksak suv o'simliklari turlari uchradi. Bular – *Typha angustifolia*, *Phragmites australis*, *P.isiaca*, *Myriophyllum spicatum*, *M.verticillatum*, *Cyperus rotundus*, *Juncus articulatus*, *J.gerardii*, *J.soranthus*, *Schoenoplectus littoralis*, *Sch.tabernaemontani*, *Bolboschoenus maritimus*, *B.affinis*, *Carex pseudocyperus*, *C.riparia*, *C.stenophylloides*, *Potamogeton crispus*, *P.perfoliatus*, *P.pectinatus*.

Bundan tashqari, respublikamizning janubiy tumanlaridagi suv havzalarida *Lemna minor*, *Polygonum amphybium*, *Acorellus pannonicus* va *Vallisneria spiralis* kamdan-kam uchraydi.

Suv o'simliklari bo'yicha tadqiqot ishlari QR Bo'zatov tumanida joylashgan baliqchilik ko'llaridan biri bo'lgan Dovutko'l ko'lida o'tkazildi. Ko'l qirg'oqlari yoyiq va notekis, bo'rtib chiqqan. Suvning shaffofligi 4-5 m gacha. Ko'lining suv va qirg'oq bo'yi o'simliklarini o'rganish davomida ularning juda yaxshi o'sishi qayd etildi. Sohil bo'yidagi o'simliklar orasida *Typha angustifolia*, suvga botib o'suvchi o'simliklardan *Potamogeton pectinatus*, *Myriophyllum verticillatum* va *M.spicatum* ko'proq o'sishi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. *Myriophyllum spicatum* L.



3 rasm. Qamishzorlar

**Sudochoye ko'llar tizimi** Amudaryo deltasining eng yaxshi saqlanib qolgan ekologik zonalaridan biri. 1991 yilda 50 ming ga maydonda Sudochoye davlat ornitologik qo'riqxonasi tashkil etildi [176: 113-b.]. 2008 yilda Sudochoye ko'li "Ahamiyatli qushlar hududi" (IBA) maqomiga ega bo'ldi [177: 181-b.]. 2023 yilda "Ramsar suvli-botqoq yerlari" deb e'lon qilingan [176: 113-b.].

Sudochoye Amudaryo deltasining g'arbiy qismida joylashgan. Orol dengizi quriy boshlagunga qadar u bilan tor kanal orqali tutashgan va yarim o'tuvchi baliq turlarining urug'lanish joyi bo'lib xizmat qilgan. Ko'lning maksimal chuqurligi 3 m bo'lib, unda baliq ovlash yiliga 2000 t ni tashkil etgan. Amudaryo suvining kamayishi uning sezilarli darajada qurishiga olib keldi va o'zining iqtisodiy ahamiyatini deyarli yo'qotdi. Suv havzasi qamishzorlar bilan tig'iz qoplangan (3-rasm). Ilgari ushbu suv havzalarida muntazam tadqiqotlar olib borilmagan, kuzatuvlar epizodik ravishda o'tkazilgan va ular gidrokimyoviy ko'rsatkichlarning o'zgarishi haqida to'liq ma'lumot bermaydi. Suv o'simliklari boshqa ko'llarga nisbatan kam turlar bilan tavsiflanadi (4 tur). Gidrokimyoviy ko'rsatkichlarning dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar ushbu ko'llar suvining ion tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasini ko'rsatadi.

**Jiltirbas ko'li** – katta suv havzasi, xuddi shu nomdagi Orol dengizi qo'ltig'i o'rnida paydo bo'lgan, hozirgi vaqtda sayoz, ko'p sonli qamishzorlardan iborat (4-rasm). Ko'l 2024 yili Samarqand shahrida o'tkazilgan 14-Bonn konvensiyasida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan "suv-botqoq yerlari" ro'yxatiga kiritilgan [178]. Suv mineralizatsiyasi 2024 yilda 10-15 g/l ni tashkil qilgan. Maksimal chuqurligi – 4 metr, minimal – 0,8-1 m.



4-rasm. Qirg'oqlarida qamishlar, tubida – qalin o'sgan *Myriophyllum spicatum*



5 rasm. Sarbass ko'li *Myriophyllum spicatum* bilan qoplangan

Ko'l Qozoqdaryo kanali va KS-1 kollektor suvlari va bir nechta termal artezian quduqlari orqali suv bilan ta'minlanadi. Shimoli-sharqiy tomonda 13 km ga cho'zilgan to'g'on qurilishi tufayli undagi suv sathi bir necha yillar oldin barqarorlashdi va Orol dengizining halokatli qurib ketishi fonida bu suv havzasi eng muhim botqoqli va baliqchilik ko'llaridan biri bo'lib qoldi. Biroq qurg'oqchil yillarda ko'lda suv sathi keskin pasaydi. Loyqalanish, sayozlanish va suv sathining keskin qisqarishi natijasida baliq zahiralarning kamayishi kuzatildi.

Jiltirbas ko'lida 17 tur yuksak suv o'simliklari uchradi.

**Sarbas ko'li** 1974 yilga kelib xuddi shu nomdagi qurib qolgan Orol dengizi ko'rfazi o'rnida paydo bo'lgan. 1982 yildan boshlab daryo oqimidan foydalangan holda unga suv yuborish boshlandi, ammo ko'lni suv bilan ta'minlash vaqti-vaqti bilan amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda uning suvi kamayishda davom etmoqda (5-rasm). Tubi ba'zi joylarda loyli va qumli. Bu suv havzasida suv o'simliklarining o'sishi juda yuqori (50-55%). Ular orasida *Myriophyllum spicatum* L. va *Potamogeton crispus* L. ustunlik qiladi. Kuzatishlar vaqtida bu o'simliklar doimiy tig'iz chakalakzorlarni hosil qilgani kuzatildi. Sohilning janubiy va janubi-sharqiy qismlari qamishzorlar, qog'alar bilan qoplangan. Suvga botib o'suvchi o'simliklardan *P.perfoliatus*, *P. pectinatus* L. kabi turlar ham tarqalgan.

Ko'lda o'simlik turlari kamligi suv va gruntning minerallashuvining ortishi bilan bog'liq (2-jadval, 1-diagramma), bu hol gidromakrofitlarning keng tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Tur tarkibining o'zgarishi asosan gidrogalofil turlar hisobiga sodir bo'ladi.


## 2-jadval

### Sarbas ko'lida yillar bo'yicha suvning sho'rlanishining o'zgarishi, mg/l hisobida

Suv namunasi	Tuzlar yig'indisi	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	Na <sup>+</sup> +K <sup>+</sup>	Ca + Mg qattqlik
Sarbas. 22.11.2008	4787,8	143,3	1225,3	1892,4	280,5	206,7	1039,6	15,0
Sarbas, t.1. chuqurlikda. 18.09.2010	1802,8	199,3	680,7	345,5	132,8	62,0	412,5	11,7
Sarbas Damba (qirg'oq bo'yida) 20.09.2010	1658,3	152,1	595,6	378,4	153,3	80,6	298,3	14,2
Sarbas, 12.05.2012	2698,0	157,9	935,0	691,1	149,0	67,8	696,2	13,0
Sarbas, 18.05.2018	4095,1	86,0	602,7	1398,7	160,3	97,2	1750,2	15,5
Sarbas, 07.08.2019	4848,6	222,5	1885,7	1217,7	350,2	351,4	821,1	46,3
Sarbas, Tuyajol irmog'i 22.08.2019	2722,3	167,3	763,6	954,4	180,7	168,7	487,6	22,9
Sarbas, Janubiy-sharqiy qism. 22.08.2019	2751,4	143,4	636,3	1168,3	180,7	219,3	403,4	27,0
Sarbas, qirg'oq 18.09.2019	3398,8	167,3	1145,5	1036,7	230,0	249,2	568,1	31,9
Sarbas 27.08.2020	2640,9	161,7	404,7	1267,1	140,2	110,6	556,6	16,1

2-jadvaldan va 1-diagrammadan ko'rinib turibdiki, ko'lning tuz tarkibi yillar bo'yicha juda katta farq qiladi. Bu, birinchi navbatda, suv havzasining suv bilan ta'minlanishiga va suvning tekis tarqalishiga qarshilik qiluvchi hamda suv

almashinuvini qiyinlashtiradigan darajada ko'p bo'lgan yuksak suv o'simliklari bilan ko'lining qoplanganligi bilan bog'liq.



**1-diagramma. Suv minerallashuvining kuzatish nuqtalarida yillar bo'yicha dinamikasi**

Suv kam bo'lgan 2007-2008 yillarda uning akvatoriyasining 80 %i qurib ketishi sodir bo'ldi, bu esa ko'lining kuchli minerallashuviga olib keldi. Suv olish nuqtasida suvda eruvchi tuzlar yig'indisi 4,7 g/l ni tashkil etdi, bu suvni Alekin tasnifiga ko'ra, sho'r suv deb hisoblanadi. Ionlar ustunligi – sulfat-xloridli tipda.

2009 yilda, ayniqsa 2010 yilda Amudaryo suvi oqimi bilan Sarbas akvatoriyasi asta-sekin tiklandi (Temirbekov va boshqalar, 2011), shuning uchun bu vaqtda ko'l suvlari kamroq minerallashgan, ammo turli nuqtalarda tuzlarning yig'indisi bilan farq qiladi: chuqurlikda – 1802.8 mg/l (1,8 g/l), qirg'oq bo'yida – 1658,3 mg/l (1,6 g/l), suv – xlorid –sulfat tipida sho'rlangan.

Keyingi – 2012 yilda minerallashuv yana oshdi, sababi 2011 yilning deyarli 9 oyi davomida daryo suvi kelib tushmagan, suvda eruvchi tuzlar yig'indisi xlorid ionining ko'pligi (935,0 mg/l) hisobiga 2698,0 mg/l (2,6 g/l) ga yetgan.

2018-2020 yillarda ko'lining gidrokimyoviy ko'rsatkichlari dinamikasi muntazam monitoring qilib turildi. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bu vaqtda o'tgan yillarga nisbatan Sarbas ko'lining sho'rli oshgan. 2019 yilda ko'lining qirg'oq qismida sho'rlanish darajasi yuqori (3,3 g/l), bu butun qirg'oq qismi *Myriophyllum spicatum* bilan tig'iz qoplanganligi va bu hol u yerda suv massalari aralashuviga to'sqinlik qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, bu ko'lga suv oqimining kelib turishi, suv o'simliklari bilan qoplanish darajasi bilan bog'liq, minerallashuvning mavsumiy o'zgarishlari xosdir.

Jiltirbas ko'li tubi loy-qumli bo'lib, sohil chizig'i notekis. Kichik suv bosgan joylarda *Phragmites australis*, *Typha angustifolia* va *Schoenoplectus littoralis* va *Bolboschoenus affinis* o'sadi. Sayoz suvli joylarni *Myriophyllum spicatum* va gidrogalofil turlar: *Potamogeton pectinatus* va *P. crispus* tig'iz qoplagan.

2018-2020 yillardagi tadqiqotlar paytida suv havzasining bir qismi qurigan, chorva mollari tomonidan ezg'ılanib, toptalgan quruqlik o'simliklari – *Tamarix*

*laxa, Salicornia europae, Alhagi pseudalhagi, Senecio subdentatus, Bolboschoenus maritimus* bilan qoplangan sayoz tubdan iborat edi.


3-jadvalda va 2-diagrammada keltirilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Jiltirbas ko'li suvida xlorid ioni miqdori juda yuqori (2 g/l va undan ko'p)ligi hisobiga kuchli minerallashuvi bilan ajralib turadi. Alekin tasnifiga ko'ra, suv sho'r, sho'rlanish xlorid tipiga kiradi. Faqat 2014 yilda minerallashuv sezilarli darajada kamaygan.

### 3-jadval

#### Jiltirbas ko'li suvining sho'rlanishining yillar bo'yicha o'zgarishi, mg/l

Suv namunasi	Tuzlar yig'indisi	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	Na <sup>+</sup> +K <sup>+</sup>	Ca + Mg Qattqlik
Jiltirbas, 06.05.2007.	3935,0	298,9	1063,6	918,2	220,4	145,9	1288,0	23,0
Jiltirbas, inshoot №1 02.06.2009	6834,0	218,8	2304,6	2024,0	276,1	244,4	1765,9	33,9
Jiltirbas, inshoot №2 02.06.2009	7967,0	190,8	3013,7	2057,0	276,0	297,9	2132,1	38,2
Jiltirbas, janibiy-g'arb 22.10.2014.	1810,8	258,0	680,7	345,5	171,9	171,4	183,3	22,6
Jiltirbas, 22.10.2014.	4242,1	131,8	1361,5	1415,2	203,2	274,8	855,6	32,7
Jiltirbas 05.08.2019	5744,1	475,8	2627,0	832,2	445,4	464,5	892,2	60,4
Jiltirbas, namuna 1, tub 26.08.2020	4975,0	286,2	1052,2	2106,3	294,5	246,8	989,0	35,0
Jiltirbas, namuna 2, sohil, 26.08.2020	4703,3	261,3	1214,1	1810,1	294,5	323,4	799,9	41,3

Shunday qilib, suv havzalarining suv rejimi va gidrokimyoviy ko'rsatkichlari to'g'ridan-to'g'ri suv oqimi va o'simliklar bilan qoplanishiga bog'liq. Suv bilan barqaror ta'minlanmagan paytda suv ekotizimlarining ko'plab parametrlari o'zgardi: ko'llarning chuqurligi, qirg'oq chizig'i, minerallashuv darajasi, shuningdek, gidrogalofil turlarning ko'payishi tufayli yuksak suv o'simliklarining tur tarkibi ham o'zgardi.



2-diagramma. Kuzatish nuqtalarida suv minerallashuvining yillar bo'yicha dinamikasi

Ko'llarda suv sathining pasayishi, suv ta'minotining o'zgarishi baliq yetishtirish uchun asosiy xavfli omildir. Shuning uchun ko'llardagi suv rejimini barqarorlashtirish, gidrokimyoviy ko'rsatkichlarni va sho'rlanishni monitoring qilish tijoriy ahamiyatga ega bo'lgan baliq turlarini ko'paytirish uchun sho'rlanishning ta'sirini o'rganish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston yuksak suv o‘simliklarining hozirgi holatini qiyosiy o‘rganish hamda ularning xo‘jalik ahamiyati”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tadqiq etilgan ko'llarda yuksak suv o'simliklarining hozirgi holatini qiyosiy o'rganish natijalari va bu ko'llarda yetishtirish mumkin bo'lgan o'txo'r baliqlarning xususiyatlari bo'yicha o'z tadqiqotimiz natijalari keltirilgan. Baliqni o'stirishda muhim omil – bu eng katta vazn ko'paytirish imkonini beruvchi optimal sharoitlar hisoblanadi.

Baliqlar mahsuldorligi baliq yetishtiruvchi suv havzalarining ozuqa bilan ta'minlanish holatiga va baliqlarning tabiiy ozuqadan foydalanish darajasiga bog'liqdir. O'simliklar deyarli barcha hayvonlar, jumladan, yosh va katta fitofag baliqlar tomonidan turli darajada foydalaniladi. Fitoplankton va yuksak suv o'simliklarining baliqlar uchun ozuqaviy xususiyatlarini chorva mollari uchun yem-xashak o'tlarining eng yaxshi sifatli navlari bilan taqqoslash mumkin.

***Ekologik va biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'llarning potentsial baliq mahsuldorligini baholash va ularning tasnifi.***

